

## **“ZO’RAVONLIKKA QARSHI 16 KUNLIK” SHIORI OSTIDA TADBIR O’TKAZILDI**



### **“Zo’ravonlikka qarshi 16 kunlik” shiori ostida tadbir o’tkazildi**


So’x tumani 30-sonli bolalar musiqa va san’at mакtabida tuman hokimligi, tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi, tuman ichki ishlар bo’limi va tuman ma’naviyat va ma’rifat markazi hamkorligida “Zo’ravonlikka qarshi 16 kunlik” shiori ostida tadbir o’tkazildi.

Barchamizga ma'lumki, 1999-yildan BMT Bosh Assambleyasi tashabbusi bilan 25-noyabr xotin-qizlarga nisbatan zo’ravonlikka barham berish xalqaro kuni sifatida nishonlanadi.

Ayni kunda Respublikamizda O’zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish to’g’risida”gi Qonunning ijrosini ta’minlash maqsadida “Zo’ravonlikka qarshi 16 kunlik” shiori ostida 16-kunlik kampaniya o’tkazilmoqda. O’tkazilgan mazkur tadbirda ishtirok etgan xotin-qizlar faollariga kampaniya haqida to’liq ma'lumotlar berildi.

Tadbirda tuman hokimi o’rinbosari, xotin-qizlar bo’limi boshlig’i Madinaxon Safarova, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi psixologi Ibrohimjon Ahmatov, tuman ichki ishlар bo’limi JXX XPB XQMB katta inspektori, podpolkovnik Shahnozaxon Shodmonovalar o’z ma’ruzalarida mavzuga oid kerakli ma'lumotlar yetkazdi.

### **So’x tumani hokimligi Axborot xizmati**



---

## **Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-27 16:57:22